

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 114 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiyoy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	












UY-JOY QURILISHI MADANIYATI, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI



Davletov Islambek Xalikovich

I.f.n., TAQU "Menejment" kafedrası professori



Zikrullayev Valixon G'aybulla o'g'li

TAQU "Menejment" kafedrası assistenti

Annotatsiya: Maqolada qurilish madaniyati taraqqiyotining tarixiy an'analari, shuningdek, uy-joy qurilishi sohasi hozirgi davrda milliy iqtisodiyotning drayveri ekanligi, so'nggi yillarda uy-joylarni foydalanishga topshirish va aholining o'rtacha uy-joy bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari tahlili, uy-joy qurilishi madaniyati tushunchasi va uning asosiy tamoyillari bayon etilgan. Shu bilan birga, maqolada zamonaviy uy-joy qurilishi madaniyatidagi asosiy muammolari ko'rsatilgan bo'lib, jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan barqaror va sifatli uy-joylarni barpo etish uchun qurilish madaniyatini yanada takomillashtirishning istibolli yo'nalishlari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot drayveri, qurilish madaniyati, uy-joy qurilishi madaniyati, mahalliy resurslar, urbanizatsiya jarayoni, kompleks yondashuv, innovatsion qurilish materiallari, ekologik toza materiallar, barqaror uy-joy qurilishi, aqli texnologiyalar, shahar infratuzilmasi.

Abstract: The article examines the historical traditions of the development of construction culture, and also outlines the fact that currently the housing construction sector is a driver of the national economy, an analysis of housing commissioning indicators and the average housing supply of the population in recent years, the concept of housing construction culture and its basic principles. At the same time, the article shows the main problems of the culture of modern housing construction, and also recommends promising directions for further improving the construction culture in order to build stable and high-quality housing that meets the needs of society.

Key words: national economic driver, construction culture, culture of residential construction, local resources, urbanization process, complex approach, innovative building materials, ecologically clean materials, sustainable residential construction, smart technologies, urban infrastructure.

Аннотация: В статье рассматриваются исторические традиции развития строительной культуры, а также изложены то, что в настоящее время сфера жилищного строительства является драйвером национальной экономики, изложены анализ показателей ввода жилья и средней обеспеченности населения жильем в последние годы, понятие культуры жилищного строительства и ее основные принципы. При этом в статье показаны основные проблемы культуры современного жилищного строительства, а также рекомендованы перспективные направления дальнейшего совершенствования строительной культуры в целях строительства стабильного и качественного жилья, отвечающего потребностям общества.

Ключевые слова: драйвер национальной экономики, строительная культура, культура жилищного строительства, местные ресурсы, процесс урбанизации, комплексный подход, инновационные строительные материалы, экологически чистые материалы, устойчивое жилищное строительство, умные технологии, городская инфраструктура.



KIRISH

Hozirgi kunga kelib dunyo aholisi soni 8 mlrd.dan oshib ketdi. Ta'kidlash joizki, 2 mingga yaqin turli millat va elat vakillaridan tarkib topgan zamondoshlarimizning qadriyatlari va turmush tutumi bir-biridan farq qiladi hamda har birining o'ziga xos tomonlari bor. Respublikamizda qurilish sohasi milliy iqtisodiyotimizning dray-veriga aylanib bormoqda. Xususan, bino va inshootlar qurilishi, xususan, zamonaviy uy-joy qurilishi, shu qatorda "Toshkent-City" xalqaro ishbilarmonlik markazi, "Olmazor Business City" turar joy majmuasi, "Piramit Tower" ko'p tarmoqli majmua va boshqa ko'plab ko'p qavatli uy-joylar qurilishi, nafaqat shaharlarimizning ko'rki, balki dunyo miqyosida mamlakatimizning rivojlanayotgan davlatlar qatoriga qo'shilayotganidan yana bir bor darak beradi. Albatta, yuqrida ta'kidlab o'tilgan yuksak qurilishlar zamirida sohaning o'ziga xos milliyligi va madaniyati bilan bog'liq jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

Qurilish madaniyati tushunchasi bizda juda qadimdan mavjud bo'lgan. Arxeologik izlanishlar va qazilmalar natijalariga asoslangan holda miloddan avvalgi qurilgan qal'alar, turli suv inshootlari, sug'orish tizimlari va boshqalar bularning tasdig'i sifatida e'tirof etilmoqda. Shu boisdan ham hozirda ajdodlarimizdan meros qolgan qurilish madaniyati asosida mustahkam va ko'rkam, o'ziga xos betakror jahon andozalariga mos zamonaviy bino va inshootlar qad rostlamoqda.

Qurilish madaniyatining rivojlanish tarixi ming yillarga borib taqaladi. Qadim zamonlardan beri odamlar o'z ehtiyojlarini qondirish va qulay yashash sharoitlarini yaratish uchun uylar, ibodatxonalar, shaharlar va boshqa inshootlar qurdilar. Qadimgi Misrdagi ibodatxonalar va piramidalar, Mesopotamiyadagi zigguratlar, yunon ibodatxonalari va Rim amfiteatrlari – bularning barchasi nafaqat funksional tuzilmalar, balki e'tiqod va sivilizatsiyalar kuchining ramzi edi. O'rta asrlarda va hozirgi zamonda texnika va ilmiy kashfiyotlar rivojlanishi bilan qurilish yanada murakkab va xilma-xil bo'lib ketdi. Arxitekturaning gotika, uyg'onish davri, barokko va klassitsizm kabi yangi uslublari va maktablari paydo bo'ldi [2].

ASOSIY QISM

XX-asrda sanoat va texnika taraqqiyotining rivojlanishi bilan qurilish yanada keng tarqalib, oqilona tus oldi. Temir-beton, shisha va po'lat kabi yangi materiallar va texnologiyalar paydo bo'ldi. Binolar balandroq, kattaroq va funksional bo'lib qoldi. Arxitektura jamiyatning yangi g'oyalari va qadriyatlarini aks ettira boshladi.

Hozirgi davrda esa barqaror qurilish, xususan, barqaror uy-joy qurilishi jadal taraqqiy etmoqda hamda ekologik toza materiallardan foydalanish kabi yangi tushuncha va yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Uy-joy qurilishi yanada innovatsion bo'lib, birinchi navbatda aholi ehtiyojlariga qaratila boshlandi.


Qurilish madaniyati - bu yuqori sifatli va bardoshli tuzilmalarni yaratishga imkon beradigan muayyan tamoyillarga asoslangan kompleks yondashuvdir. U qurilish jarayonining barcha bosqichlarini, ya'ni obyektning loyihalashdan boshlab to undan foydalanish tugagunga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi.

Uy-joy qurilishi tarixi uni yaratuvchilarning g'ayrioddiy zukkoligidan dalolat beradi, ular doimiy ravishda uy-joy loyihalarini takomillashtirib boradilar va ularni mohirlik bilan moslashtiradilar, mahalliy resurslardan maksimal darajada samarali foydalanadilar va muayyan hududning iqtisodiy, ijtimoiy va iqlim sharoitlari bilan bog'liq barcha dolzarb ehtiyojlarni qondiradilar.

Har bir jamiyat uy-joy qurilishning o'ziga xos an'analari ega, buning natijasida biz o'ziga xos qurilish uslublari va turmush tarzini aks ettiruvchi arxitektura haqida gapirishimiz mumkin. Biroq, mahalliy qurilish madaniyati o'zgarmasdan qolmaydi [3]. U jamiyat taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liq holda boradi. Buni mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro turli darajadagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi, shuningdek yangi bilim va ko'nikmalar, yangi qurilish texnikalari, texnologiyalari va usullari, yangi qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarining paydo bo'lishi bilan izohlash mumkin.


Qayd etish joizki, so'nggi 6 yil davomida mamlakatimizda uy-joy qurilishi va uni saqlashni rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilayotgani, avvalo, xalqimizning ana shunday ezgu orzu-umidlari ro'yobiga xizmat qilayotgani, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan islohotlarning amaliy ifodasi o'laroq muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni raqamlarda izohlaydigan bo'lsak, so'nggi 6 yildan ortiq davr mobaynida respublika bo'yicha 326 mingga yangi uylar qurilib foydalanishga topshirildi, shuningdek ushbu davr ichida uy-joy bilan ta'minlash aholi jon boshiga 18 foizga oshdi [4].

Respublikada 2017–2022-yillar davomida jami 81882,5 ming kv.m. uy-joy foydalanishga topshirildi, shundan 53337,3 ming kv.m. qishloq joylarda, 28545,2 ming kv. m. shaharlarda. Turar joy binolarini foydalanishga topshirish 2017-yildagi 11456,4 kv.m.dan 2022-yilda 14612,6 ming kv.m.ga yoki 27,5 % oshdi (1-rasm).



1-rasm: 2017–2022-yillarda respublikaning shahar va qishloq joylarida uy-joylarni foydalanishga topshirish dinamikasi (ming kv.m.)^[5]

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 yanvar holatiga respublikamizda aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi har bir aholiga umumiy yashash maydonidan o'rtacha 18,5 kv.m. ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2019–2020-yillarning mos davrlariga nisbatan 2,5 kv.m. oshgan (2-rasm).



2-rasm: 2017–2022-yillarda respublika aholisining uy-joy bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi dinamikasi (o'rtacha 1 kishiga, kv.m.)^[6]

O'zbekistonda uy-joy qurilishi va uning ekspluatatsiyasi masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Gap shundaki, aholini uy-joy bilan ta'minlash nafaqat asosiy ijtimoiy muammo, balki insonning normal hayotini belgilab beruvchi va ta'minlovchi majburiy atributlardan biridir.

Yuqoridagilar shuni ta'kidlash imkonini beradiki, bugungi kunda respublikada o'ziga xos demografik vaziyat shakllangan bo'lib, bu amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar fonida aholini uy-joy bilan ta'minlashning ijtimoiy ahamiyati oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Aholining uy-joy bilan ta'minlanishi va uning hamyonbopligi mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Bu respublika aholisi turmush darajasiga bevosita ta'sir qiladi va demografik vaziyatda aks etadi, shuningdek, u aholining iqtisodiy madaniyatiga ham ta'sir qiladi, chunki uy-joy sotib olishda katta pul mablag'i talab qilinadi.

Mahalliy uy-joy qurilishi madaniyati ko'pincha jamiyatda shakllangan an'analarni hisobga olish va ularni hurmat qilish talabi bilan belgilanadi. Uy-joy qurilishi madaniyati jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismidir. U turar joy binolarni qurish va ulardan foydalanish jarayoni bilan bog'liq bilim, ko'nikma va qadriyatlarning keng doirasini qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda uy-joy qurilishi madaniyatining asosiy jihatlari, uning tarixi, tamoyillari, jamiyatdagi o'rni, atrof-muhitga ta'siri, shuningdek, uning muammolari va rivojlanish istiqbol-lari muhim masalalar hisoblanadi^[1].



Uy-joy qurilishi madaniyati - bu turar joy binolarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanishga kompleks yondashuvdir. U nafaqat arxitektura va muhandislik jihatlarini, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarni ham o'z ichiga oladi. Quyidagi jadvalda uy-joy qurilishi madaniyatining asosiy tamoyillari va ularning tavsiflari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: Uy-joy qurilishi madaniyatining asosiy tamoyillari

Asosiy tamoyillar	Tavsifi
Funksionallik	Turar joy binolarining maqsadi va vazifalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilishi va qurilishi kerak. Ular foydalanish uchun qulay va samarali bo'lishi, odamlarning ehtiyojlarini qondirishi va qulay yashash, mehnat yoki dam olish sharoitlarini ta'minlashi kerak.
Estetika	Uy-joy qurilishi madaniyati atrof-muhitga mos keladigan va unga o'ziga xos xususiyat beradigan go'zal va uyg'un binolarni yaratishga intiladi. Estetik taassurot yaratishda me'moriy shakllar, ranglar, teksturalar va nisbatlar muhim rol o'ynaydi.
Xavfsizlik	Qurilish jarayonning barcha ishtirokchilari - ishchilar, dizaynerlar va bino foydalanuvchilari uchun xavfsiz bo'lishi kerak. Turar joy binolari qurilish me'yorlariga mos kelishi, turli yuklarga chidamli bo'lishi va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlashi kerak.
Barqarorlik	Uy-joy qurilish madaniyati barqaror va ekologik toza binolarni yaratishga intiladi. Bu energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish, chiqindilarni boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilishni o'z ichiga oladi.
Ijtimoiy javobgarlik	Uy-joy qurilishi jamiyat ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olishi kerak. Binolar aholining barcha guruhlari, shu jumladan nogironlar uchun ochiq bo'lishi kerak. Uy-joy qurilishi madaniyati ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish va mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu tamoyillar uy-joy qurilishi madaniyatini rivojlantirish uchun asos bo'lib, odamlar va butun jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan sifatli va barqaror turar joy binolarni yaratishga yordam beradi.

Bugungi kunda zamonaviy uy-joy qurilishi madaniyatidagi asosiy muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin.

- **Ekologik.** Zamonaviy uy-joy qurilish bir qator ekologik muammolarga duch keladi. Ulardan biri atrof-muhitning ifloslanishidir. Uy-joy qurilishi jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli xil materiallar va texnologiyalar qo'llaniladi. Ifloslantiruvchi moddalar, qurilish va buzish chiqindilari, energiya va suv iste'moliga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun ekologik toza materiallardan foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash, chiqindilarni utilitatsiya qilish kabi tizimlarni takomillashtirish va resurslar sarfini kamaytirish kerak.

- **Ijtimoiy.** Asosiy muammo arzon uy-joylarning etishmasligi. Aksariyat mamlakatlarda, ayniqsa, kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun uy-joy taqchilligi muammosining mavjudligi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda birinchi galda aholining kam ta'minlangan qismi, xususan boquvchisini yo'qotgan, chin yetimlar, imkoniyati cheklangan va shu kabi oilalarning yashash sharoitlarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu muammoni hal qilish uchun ijtimoiy uy-joy dasturlarini ishlab chiqish, arzon va sifatli turar joy majmualarini yaratish, mavjud binolarda yashash sharoitlarini yaxshilash talab qilinadi.

- **Texnologik.** Zamonaviy uy-joy qurilishi madaniyati ham texnologik muammolarga duch kelmoqda. Yangi texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bilan qurilish uchun yangi imkoniyatlar va talablar paydo bo'ladi. Misol uchun, binolarni 3D bosib chiqarish uskunolari yoki aqlli boshqaruv tizimlari kabi innovatsion texnologiya va materiallardan foydalanish quruvchilar va dizaynerlardan yangi bilim va ko'nikmalarni talab qiladi.

Bu muammoni hal etish uchun yangi texnologiya va innovatsiyalarni doimiy nazorat qilib borish, mutaxassislarni yangi malakalarga o'rgatish va qurilishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash lozim bo'ladi.



- **Iqtisodiy.** Hozirgi paytda uy-joy qurilish madaniyati ham iqtisodiy muammolarga duch kelmoqda. Turar joy binolarni qurish katta moliyaviy resurslarni talab qiladi hamda iqtisodiy qiyinchilik va bozor o'zgarishlariga duch kelishi mumkin.

Ushbu muammoni hal qilish uchun samarali moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish, investitsiyalarni jalb qilish, loyihalarni boshqarishni takomillashtirish va qurilish xarajatlarini kamaytirish zarur bo'ladi.

Butun dunyoda globallashtirish jarayoni jadallashgan bir vaqtda uy-joy qurilishi madaniyati rivojlanishda davom etmoqda. Bu o'z navbatida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun uy-joy qurilishining ahamiyatini belgilovchi yana bir muhim omil sifatida multiplikativ samaraga, ya'ni tog'-kon, qurilish materiallari va metallurgiya sanoati hamda elektr jihozlari, kauchuk va plastmassa mahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek, ijtimoiy soha rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishi, qurilish materiallari, transport va savdo xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning muntazam ortishiga, shuningdek yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va kommunal infratuzilmalarning ham yaxshilanishiga olib keladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, uy-joy qurilishi madaniyati jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismidir. U turar joy binolarning sifati va estetik qiymatini belgilaydigan tarixiy an'analar, tamoyillar va qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Uy-joy qurilishi madaniyati ijtimoiy muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi hamda aholi farovonligi va turmush darajasiga ta'sir qiladi. Shu bilan birgalikda, hozirgi uy-joy qurilishi va madaniyatining rivojlanishi atrof-muhit muammolari va jamiyat ehtiyojlari o'zgaruvchanligi kabi turli muammolarga duch kelmoqda. Shuning uchun jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan barqaror va sifatli uy-joylarni yaratish uchun qurilish madaniyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish muhimligi bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lib qoladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, bugungi kunda uy-joy qurilishi madaniyati rivojlanishining istiqbolini quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi tavsiya qilinadi:

- **Uy-joy qurilishida yangi texnologiyalardan foydalanish.**

Uy-joy qurilishida texnologiyaning rivojlanishi bilan binolarni loyihalash, qurish va boshqarish uchun yangi imkoniyatlar va vositalar paydo bo'ladi. Bunda muhim yo'nalish - bu energiya sarfini optimallashtirish, binolar ichidagi xavfsizlik va qulaylikni oshirish imkonini beruvchi aqlli texnologiyalar va binolarni boshqarish tizimlaridan foydalanish hisoblanadi.

- **Barqaror uy-joy qurilishini ta'minlash.**

Uy-joy qurilishi madaniyati atrof-muhit muammolari va ekologik barqarorlikka ko'proq e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. Bu ekologik toza materiallardan foydalanish, energiya tejamkor qurilish, atrof-muhitga ta'sirni hisobga olishni o'z ichiga oladi. Kelajakda uy-joy qurilishi ekologik jihatdan mas'uliyatli va barqaror bo'lib, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarini kamaytirish va barqaror yashash muhitini yaratishga yordam beradi.

- **Shahar infratuzilmasini rivojlantirish.**

Urbanizatsiya jarayoni kuchayishi va shahar muammolarining ko'payishi bilan uy-joy qurilishi madaniyati shahar infratuzilmasini yaxshilashga qarab rivojlanishi kerak bo'ladi. Bu qulay va xavfsiz shahar maydonlarini yaratish, transport infratuzilmasini, jumladan, jamoat transportini rivojlantirish va barqaror shahar hududlarini yaratishni o'z ichiga oladi. Shahar infratuzilmasini rivojlantirish aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilashga, transport muammolarini kamaytirishga va barcha aholi uchun qulaylik hamda foydalanish imkoniyatini ta'minlashga yordam beradi.

- **Innovatsion qurilish materiallaridan foydalanish.**

Uy-joy qurilishi madaniyatining rivojlanishi yangi qurilish materiallarini, yengil, ekologik toza va energiya tejamkor materiallarni doimiy izlash va ulardan foydalanish bilan ham bog'liq. Shuning uchun ham qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan yangi qurilish materiallarini ishlab chiqish neft-gaz va boshqa qazilma manbalarga qaramlikni bir necha marotaba kamaytirishga olib keladi.

Umuman olganda, uy-joy qurilishi madaniyatining rivojlanishi istiqbollari yangi texnika va texnologiyalar, qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalardan foydalanish, barqaror uy-joy qurilishi, shahar infratuzilmasini rivojlantirish va shu kabi qurilishdagi barcha innovatsiyalar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi hamda ushbu yo'nalishlar kelajak uchun yanada samarali, barqaror va qulay turar joy binolarining barpo etilishiga yaqindan yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati:**

1. Kubaev S. O'zbekiston hududida turar joy qurilishi madaniyati tarixi. https://www.researchgate.net/publication/371788318_istoria_kultury_stroitelstva_zilyh_pomesenij_na_territorii_uzbekistana
2. Культура строительства: основные принципы и важность в современном мире. <https://nauchniestati.ru/spravka/kultura-stroitelstva/>
3. Тьерри, Жоффруа Перенимать местную культуру строительства для повышения устойчивости жилых построек. <https://www.un.org/ru/chronicle/article/21917>
4. В 2023 году объемы строительства жилья увеличатся в 1,5 раза, количество домов будет доведено до 90 тысяч. <https://yuz.uz/ru/news/v-2023-godu-obem-stroitelstva-jilya-velichatsya-v-15-raza-kolichestvo-domov-budet-dovedeno-do-90-tsyach>
5. Статистический сборник "Строительство в Узбекистане", г.Ташкент, 2017-2020 гг., 2018-2021гг., стр.71-73, стр.73-75, 2019-2022 гг., стр.71.
6. Статистический сборник "Узбекистан в цифрах", г.Ташкент, 2017-2018 гг., стр. 85, 2018-2019 гг., стр.85, 2019-2020 гг., стр.80, 2020-2021 гг., стр.80, 2021-2022 гг., стр.80
7. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
8. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
9. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi.
10. www.mc.uz - O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.